

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KENESININ
QARARI**

2023 - yil 14 - noyabr

402-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

Qoraqalpog'iston Respublikasi Qorao'zak tumani "Qoybaq" OFY hududidan doimiy foydalanish huquqi asosida yer maydoni ajratish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 3-moddasi, "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 35-moddasi va "Yer to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 4-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi "Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi 543-son qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-martdagi "Yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun ruxsatnomalar berish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 133-sonli qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2023-yil 31-avgustdagi 18-11502/47-sonli buyurtma xatini inobatga olib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi **qaror qiladi:**

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish vazirligi va vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari hamda kelishuvlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qorao'zak tumani "Qoybaq" OFY hududidagi tuman hokimligi zaxira yer fondida turgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan jami 5,0 gektar yer maydoni noruda foydali qazilmalar uchun ilovaga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligiga doimiy foydalanish huquqi asosida ajratib berilsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-martdagi "Yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun ruxsatnomalar berish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 133-sonli qarori ijrosini qonunchilikka muvofiq ta'minlash choralarini ko'rish so'ralsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi

mazkur qarorga muvofiq yer fondiga o‘rnatilgan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosari Sh.Dauletiyarov zimmasiga yuklansin.

**Qoraqalpog‘iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**




F. Ermanov

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023-yil 14-noyabrda
402-13-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova



O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va Geologiya vazirligiga
Qora'ozek tuman "Qoybaq" OFY hududida Noruda foydoli qazilmalari ushun
ajratib berish rejalashtirilgan yer uchastkasining joylashishi
TARXI
M - 1: 5000



Yer uchastkasi haqida qisqacha ma'lumotlar: Qora'ozek tumani "Qoybaq" OFY hududida joylashgan bo'lib,

Shimol tomondan: Oshiq maydon,

Garb tomondan: Oshiq maydon,

Sharq tomondan: 1500 m A-380 magistral yo'l,

Janub tomondan: Oshiq maydon,

W GS-84 Koordinatalari:

1) 42° 7'52.51"C 60° 19'39.95"B

2) 42° 7'57.35"C 60° 19'50.36"B

3) 42° 7'54.70"C 60° 19'54.26"B

4) 42° 7'46.94"C 60° 19'45.50"B

Tuman markazidan: 102 km radius masofada

Qora'ozek tumani "Qoybaq" OFY hududida joylashgan

Yer uchastkasi maydoni: 5,0 ga

Yerfondi: Tuman zaxira yerlari

Qaysi maqsadda foydalansa boladi : Noruda foydoli qazilmalari ushun

Yer turi: Qishlok xo'jaligida foydalanmaydigan boshka toifadagi yerlar

Ball baniteti : Boxolanmagan

Yer uchastkasining kadastr raqami : 23:14:05:02:02:0350

Shartli belgilar
Ajlantilgan yer chegarasi